

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar- iyun holatiga

RAQAMLAR:

- O'tgan yilga nisbatan faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1436 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'ssatmayotgan korxonalarning ulushi **0,6 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1259 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-iyun oyida viloyatimizda 1802 korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 513 taga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 25,1 % ga kamaygan hamda ularning soni 543 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'ssatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1340 ta (8,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 16965 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Buxoro shahrida (32,4 %), G'ijduvon (10,5%), Romitan (7,5 %) va Buxoro tumani (7,1 %) tumanlaida kuzatilmogda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



***Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi***
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 iyul holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	Birlik	jamiga nisbatan %	Birlik	jamiga nisbatan %
Buxoro viloyati bo'yicha	17830	100,0	16965	100,0
<i>tumanlar:</i>				
Olot	617	3,5	558	3,3
Buxoro	1323	7,4	1203	7,1
Vobkent	872	4,9	848	5,0
G'ijduvon	1911	10,7	1778	10,5
Kogon	922	5,2	854	5,0
Qorako'l	916	5,1	870	5,1
Qorovulbozor	330	1,9	321	1,9
Peshku	1093	6,1	1065	6,3
Romitan	1309	7,3	1274	7,5
Jondor	1199	6,7	1143	6,7
Shofirkon	1097	6,2	984	5,8
<i>shaharlar</i>				
Buxoro sh	5643	31,6	5488	32,4
Kogon sh	598	3,4	579	3,4


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,1 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulishi 4,9 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,6 f.p. kamaygan

Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan 21,3 % savdoda, 14,2 % sanoatda, 10,2 % qurulishda, 9,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 6,5 % tashish va saqlash, 1,2 % axborot va aloqa, 2,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-iyun holatiga 1802 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 39,8 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Buxoro shahrida (545 ta), Romitan (189 ta), G'ijduvon (147 ta) va Shofirkon tumanlarida (122 ta) tashkil etilgan. Eng kam Qorovulbozor (47 ta), Olot (60 ta) hamda Ko-gon sh. (71 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi boshqa turlarda (481 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (272 ta), sanoat (265 ta), savdoda (266 ta), tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (31 ta), tashish va saqlashda (56 ta) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (55 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-iyun holatiga.	2018 yil yanvar-iyun holatiga.
Jami:	1289	1802
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	304	272
Sanoat	302	265
Qurilish	140	237
Savdo	189	266
Tashish va saqlash	57	56
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	104	139
Axborot va aloqa	23	31
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	36	55
Boshqa turlari	134	481

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiyl soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 iyul holatiga 13881 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 3045 ta, oilaviy korxonalar – 786 ta, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar – 9673 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 25 tani va boshqalar 352 tani tashkil etadi.


Faoliyat ko`rsatayotgan yuridik shaxslar-xo`jalik yurituvchi sub`ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo`yicha taqsimlanishi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 113 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 28 taga yoki 32,9 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 76 tasi qo'shma korxonalar, 37 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Buxoro shahar 67 ta (59,3 %), Vobkent tumani 9 ta (8,0 %) va Kogon tumanlari 7 ta (6,2 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Shofirkon tumani 1 ta (0,9 %), Kogon shahri 2 ta (1,8 %), Qorovulbozor tumani 2 ta (1,8 %), G'ijduvon tumani 2 ta (1,8 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hudular kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyul holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 65 ta (57,5 %), savdoda 18 ta (15,9 %), boshqa turlarida va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 9 ta (8,0 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 2 ta (1,8 %), qurilish va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 5 ta (4,4 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinishib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokida korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-iyun oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 22 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14 taga ko'paygan yoki 2,7 baravarga oshgan.

Bunda, Eron Islom Respublikasi – 2 ta, Turkiya Respublikasi – 3 ta, Rossiya Federativ Respublikasi—7 ta, Koreya Respublikasi— 5 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan va boshqa davlat rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-iyun holatiga), birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 8 ta, savdoda 4 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 4 ta, qurilishda 2 ta, yashash va ovqatlanishda 3 ta, sog'liqni saqlash 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 iyul holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 13755 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyul holatiga qaraganda 9,1 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 4669 tasi (33,9 %) Buxoro shahriga, 1449 tasi (10,5 %) G'ijduvon, 1053 tasi (7,7 %) Romitan, hamda 993 tasi (7,2 foizi) Buxoro tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 13755 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3578 tasi (26,0 %) – savdoda, 2381 tasi (17,3 %) - sanoatda, 1712 tasi (12,5 %) - qurilishda, 1625 tasi (11,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1043 tasi (7,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1091 tasi (8,0 %) - tashish va saqlashda, 197 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasida, 390 tasi (2,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1738 tasi (12,7 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-may holatiga 1550 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 24,5 foizga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Buxoro shahrida (492 ta), Romitan (165 ta), G'ijduvon (124 ta) va Shofirkon tumanlarida (98 ta) tashkil etilgan. Eng kam Qorovulbozor (45 ta), Olot 49, Kogon shahar (65 ta), Vobkent (67 ta) hamda tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (272 ta), sanoatda (265 ta), savdoda (264 ta) va qurilishda (237 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (31 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (55 ta) hamda tashish va saqlashda (56 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 iyul holatiga 826 tani tashkil etib, ulardan 786 tasi yoki 95,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yhatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha **30,6** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 27,6 % yoki 217 tasi sanoat, 31,9 % yoki 251 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 14,6 % yoki 115 tasi savdo, 13,2 % yoki 104 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,2 % yoki 9 tasi qurilish, 0,8 % yoki 6 tasi axborot va aloqa, 1,0 % yoki 8 tasi tashish va saqlash, 2,3 % yoki 18 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 7,4 % yoki 58 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Buxoro viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Nashr uchun mas'ul: F.Xakimova
(65) 230-83-20,21



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan